

MODAL SO‘ZLAR

Abdushukurova Zubayda Ersaxatovna
Toshkent shaxar Mirzo Ulug‘bek tumani
275 – maktab o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada modal so‘zlar, modal so‘zlar takror qo‘llansa yoki emotsional mazmunli so‘z bilan birga kelsa, ma‘no kuchayishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Modal so‘zlar, „o‘lchov“, „usul“, tasdiq-ishonch, qat‘iylik, sof modal so‘zlar, vazifadosh modal so‘zlar.

Modal so‘zlar (lotincha: modalis — „o‘lchov“, „usul“) — so‘zlovchining o‘z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrning aniqligi, rostligi, gumonli yoki shartlilikini ifodalash uchun xizmat qiladigan so‘zlar; shaklan o‘zgarmasligi bilan tavsiflanadi, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi, gapning boshqa bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi; butun fikrga yoki uning biror qismiga taalluqli bo‘lib, odatda, kirish so‘z bo‘lib keladi.

Modal so‘zlar 2 katta guruhga bo‘linadi: fikrning aniqligini ifodalovchi modal so‘zlar, bularga rostlik, tasdiq-ishonch, qat‘iylikni bildiruvchi so‘zlar (darhaqiqat, haqiqatan; albatta, shubhasiz, so‘zsiz va shahrik.) kiradi. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so‘zlar Bularga taxmin, gumon, tasmol kabi ma‘nolarni ifodalovchi so‘zlar (shekilli, chog‘i, chamasi; ehtimol, balki, aftidan va boshqalar) kiradi. Modal so‘zlar nutqda pauza, yozuvda vergul bilan ajratiladi.

Modal so‘zlar takror qo‘llansa yoki emotsional mazmunli so‘z bilan birga kelsa, ma‘no kuchayadi. So‘zlashuv nutqida birdan optik modal so‘z qo‘llanishi mumkin. Modal so‘zlarni fikrning o‘zaro munosabati (xullas, demak, binobarin, qisqasi, umuman, masalan, chunonchi, jumladan, aksincha, avvalo, avvalambor, nihoyat), e‘tiborni tortish (aytganday, aytmoqchi, zotan), ta‘kid (xususan, ayniqsa), emotsional ma‘no (koshki, zora, yaxshiyamki, xayriyat, attang, afsuski, ajabo) kabilarni anglatuvchi modal ma‘noli so‘zlardan farqlash kerak.

Modal so‘zlar va modal ma‘noli so‘zlar o‘zaro yaqin bo‘lib, ularning har biriga xos belgi-xususiyatlarni aniqlash funksional grammatikaning dolzarb vazifalaridandir.

Modal so‘zlar, aslida, mustaqil so‘zlardan ajralib chiqqan bo‘lib, ularning bir qismi, ham mustaqil so‘z, ham modal ma‘no ifodalovchi so‘z sifatida, ba‘zilari esa hozirgi tilda faqat modal ma‘no ifodalashga xoslanib qolgani sababli, o‘ziga xos ikki guruhni tashkil etadi:

- 1) sof modal so‘zlar: darhaqiqat, haqiqatan, afsuski, attang, albatta, avvalo, xullas;
- 2) vazifadosh modal so‘zlar: chamasi, ehtimol, shubhasiz, aftidan.

Modal so‘zlar quyidagi turkumga oid so‘zlardan ajralib chiqqan-ligi bilan ham o‘zaro

farqlanadi: aftidan, ehtimol, haqiqatan, darhaqiqat kabilar otdan; shubhasiz, bor, yo‘q, so‘zsiz, tabiiy kabilar sifatdan; albatta ravishdan; o‘z-o‘zidan olmoshdan; chiqar, bo‘pti fe‘ldan ajralib chiqqan.

Modal so‘zlarni u ajralib chiqqan mustaqil so‘zdan quyidagi belgilariga ko‘ra farqlash mumkin: a) modal so‘z mustaqil yasama so‘zdan ajralgan bo‘lishi mumkin. Bunday modal so‘z yasovchi qismlarga ajratilmaydi. Aynan shu ko‘rinishdagi mustaqil so‘z esa yasovchi qismlarga ajratiladi.

Qiyoslang: Uning har qanday topshirig‘i so‘zsiz bajariladi(.So‘zsiz, bu kirdikorlarning boshida sen turibsan. Birinchi misoldagi so‘zsiz mustaqil so‘z bo‘lib, so‘z+siz qismlardan iborat, ikkinchi misoldagi so‘zsiz esa qismlarga ajratilmaydi, bir butun holda so‘zlovchining anglatilayotgan fikrni dallash munosabatini bildiradi; b) modal so‘z mustaqil so‘zning biror grammatik shaklidan kelib chiqqanda ham u morfemalarga ajralmaydi. Modal so‘z ko‘rinishidagi mustaqil so‘z esa morfemalarga ajraladi: Har bir ishning chamasi bor (egalik shaklidagi ot: chama+si). Ular, chamasi, bir yildan so‘ng uchrashdilar (modal so‘z).

Modal so‘zlarning ma‘no jihatdan turlari.

Mustaqil so‘zning bu kabi o‘z ma‘nosini yo‘qotgan holda yordamchi so‘zga aylanishi natijasida omonimlik yuzga keladi.

Modal so‘zlar gapda, asosan, kirish so‘z vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ularning gapda quyidagi vazifalarda kelishini kuzatish mumkin:

a) kesim yoki kesimning tarkibiy qismi vazifasida: Bu yoqqa keling, sizga gap bor. Inson uchun suv va havo zarur;

b) so‘z gap vazifasini bajarishi ham mumkin: -Ertaga dam olish kunimi? -Yo‘q (yoki -Albatta).

Modal so‘zlar va uning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari. So‘zlovchining aytilayotgan fikrga bo‘lgan munosabatini (modal ma‘noni) ifodalovchi so‘zlarga modal so‘zlar deyiladi. Modal so‘zlarga quyidagilar kiradi: aftidan, darhaqiqat, darvoqe, attang, ehtimol, afsus, shubhasiz, so‘zsiz, tabiiy, albatta, haqiqatdan, nihoyat, bo‘pti, demak, aytmoqchi, o‘z-o‘zidan, bor, yo‘q va hokazo. Shu modal so‘zlar orqali so‘zlovchi o‘z fikriga aniqlik, ishonch, ma‘qullash, gumon, chama, noaniqlik, maqsad, talab, shart, mavjudlik, inkor, e‘tiroz, yakunlash, eslatish, achinish kabi ma‘no munosabatlarini kiritadi.

Adabiyotlar

1. M.Irskulov Tilshunoslikka kirish. T., «O‘qituvchi» 1992.
2. A.Baskakov, A. Sodikov, A.Abduazizov Umumiy tilshunoslik. T., « O‘qituvchi » 1981
3. X.Ne‘matov, O.Bozorov Til va nutk. T., «Ukituvchi» 1993.
4. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Raxmatullayev Xozirgi Ўzbek adabiy tili.. 1-kism. T., «Ukituvchi» 1979.
5. N. Turniyozov A.Rahimov O‘zbek tili (ma‘ruzalar matni)